

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.San.54.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

XAMDAMOVA NARGIZA TURSUNBAYEVNA

AMIR XUSRAV DEHLAVIY VA MUSIQA

17.00.02 – Musiqa san’ati

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по искусствоведению**

**Content of dissertation abstract of doctor philosophy (PhD)
on art history**

Xamdamova Nargiza Tursunbaevna Amir Xusrav Dehlaviy va musiqa.....	3
Хамдамова Наргиза Турсунбаевна Амир Хусрав Дехлеви и музыка.....	21
Xamdamova Nargiza Tursunbaevna Amir Khusrav Dehlavi and music.....	41
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works.....	45

**O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.12.2021.San.54.01 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

XAMDAMOVA NARGIZA TURSUNBAYEVNA

AMIR XUSRAV DEHLAVIY VA MUSIQA

17.00.02 – Musiqa san’ati

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida V2019.1.PhD/San42 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik (PhD) dissertatsiyasi O'zbekiston davlat konservatoriyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifada www.konservatoriya.uz manziliga va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida www.ziynet.uz manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Begmatov Soyibjon Mahmudovich
san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar::

Abdullayev Rustambek Samigovich
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

Abdurashidov Abduvali
san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Yu.Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2021.San.54.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "_____" kuni soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayhontohur rayoni, B.Zokirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871)239-46-53; faks: (99871) 244-53-20; E-pochta: info@konservatoriya.uz.

Dissertatsiyasi bilan O'zbekiston davlat konservatoriyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100027, Toshkent, Shayhontohur rayoni, B.Zokirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99871)239-46-53.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "_____" kuni tarqatildi.
(2023 yil "_____" _____dagi _____raqamli reestr bayonnomasi).

T.B.G'ofurbekov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

B.Sh.Ashurov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash kotibi,
san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

S.B.Kasimxodjaeva

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, san'atshunoslik
fanlari nomzodi, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon musiqa merosida o'tmishda yashab ijod etgan allomalarning qoldirgan merosi o'zining keng qamrovligi bilan ahamiyatlidir. Umumjahon amaliyotida milliy qadriyatlar, badiiy meros shu bilan birga musiqa san'ati ham asosan tarixiy, nazariy, filologik, adabiyotshunoslik, estetika sohalaridagi mezonlar va me'yorlar asosida tahlillangan. Buning zaminida esa musiqa san'atiga doir masalalar, shu bilan birga manbalar, jumladan xalqlar madaniyatining o'zaro ta'sirida shakllanib, rivojlangan musiqiy meros keng qamrovda izlanishlar olib borilishini taqozo etadi. Bunda o'tmish allomalarining hissalarini jahon musiqashunosligida muayyan darajada dolzarbligi bilan ahamiyatlidir.

Dunyo musiqa ilmida xalqlar ma'naviyatini shakllantiruvchi milliy musiqa, an'analar va qadriyatlarni birlamchi manba sifatida ilmiy va musiqiy-nazariy jihatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy manbalarni tadqiq etish, ular asosida mavjud bo'lgan musiqiy namunalarni janr-uslub, shakl, ohang, metr va ritm, ijrochilik va ularning musiqiy xususiyatlari kam o'rganilgan jabhalardan biri bo'lganligi sababli ilmiy merosni amaliyotga tadqiq etish, janr xususiyatlarini nazariy jihatdan tahlil qilish, musiqiy manbashunoslik sohasida maxsus ilmiy-amaliy tadqiqot olib borilishini taqozo etmoqda.

Yurtimizda madaniyatni, xususan musiqa san'atini hamda insoniyat tamadduni rivojiga hissa qo'shgan shaxslarni ijodini o'rganish, ilmiy anglash, og'zaki va yozma manbalarni tadqiq etish, doimo davr talabi va dolzarb masala bo'lib kelgan. "... adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi"¹. Demak, mamlakatimizda musiqashunoslar tomonidan musiqiy namunalarni tahlil qilish, ijro uslublari, parda va usul xususiyatlari shu bilan birga ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan ilmiy manbalarni o'rganish va amaliyotda tadqiq etish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 8 avgustdagi PQ-3178-son "O'zbekiston davlat konservatoriyasi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017 yil 17 noyabrdagi PQ-3391-son "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 26 avgustdagi PQ-3920-son "O'zbekiston Respublikasi madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022 yil 10 fevraldagi PQ-126-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganganlik darajasi. Amir Xusrav Dehlaviyni boshqa barcha sohalar kabi musiqashunoslik ilmi bo'yicha ham ijodiy faoliyati ilmiy va

¹ Xalq so'zi gazetasi. 2018 yil 8 avgust № 162 (7120)

ilmiy ommabop jihatdan asoslangan holda o'rganilgan va tadqiq etilgan. Ularda ijodkorning musiqa sa'natini turli yo'nalishlariga qo'shgan hissasi, ijrochilik, bastakorlik san'ati xususidagi fikrlar bayon etilgan va uning ijodining sermahsulligi qayd etib o'tilgan.

Amir Xusrav Dehlaviyning hayoti va ijodiy faoliyati va o'sha davr musiqa taffakuri haqida: – Amir Xusrav Dehlaviyning “E'jozi Xusrav”^{2,3} “کرامتاً تو صد”⁴, *یاء دجاو*, Дарвеш Али Чанги “Трактат о музыке”⁴, Mohammad Wahid Mirza⁵, Q.Fatimi⁶, Rashid Malik, Davlatshoh Samarqandiy, A.Nizomov, A.Rajabov, Z.Nasullaev, Sh.Nizomiddinov⁷, G.To'ychiva⁸, J.Mirsaidov⁹, Sh.Shamuxamedov¹⁰, G.Alieva¹¹, R.X.Tagaymurodov, M.Narziqul va boshqa olimlarning tarixiy hamda badiiy asarlarida ba'zi ma'lumotlarni uchratish mumkin. Ushbu berilgan ma'lumotlar dissertatsiyaning o'ziga xos ilmiy salohiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Xusrav Dehlaviy hayotining tarixiy mezonlari aks ettirilgan, adabiy merosiga ahamiyat berilgan, hind musiqa nazariyasi va cholg'ulari haqida N.K.Sinxa, A.Ch.Banerdji¹², K.Z.Ashrafyan,¹³ K.S.Lal¹⁴, G.B.Ranade¹⁵, N.Mallaev¹⁶ kitoblari XII-XIII asrlarga tegishli tarixiy va siyosiy jarayonlarni yoritib o'tgan.

Ram Babu Saksena¹⁷, Sh.Chauxan¹⁸, Garsin de Tassilar esa Dehlaviyning adabiyot sohasidagi o'rnini va yutuqlarini baholaydilar. Shu bilan birga M.A'zamova¹⁹, Madxumita Dutta²⁰, Sunira Kaslival²¹, B.Chaytanya Deva²², Sunil Bose²³ lar hind musiqasi madaniyati, tarixiy va nazariy, musiqiy cholg'ulari haqida ma'lumotlar keltiradi.

Z.Nasullaev o'zining “Amir Xusrav Dehlaviy asarlarida musiqa haqida ma'lumot” o'quv uslubiy qo'llanmasida Amir Xusravning shoir hamda musiqa sohasiga qo'shgan hissalarini haqida filolog hamda manbaashunos sifatida yoritib beradi.

Musiqashunos F.Azizovning “Шашмаком и рага”²⁴ kitobi ikki xalq mumtoz musiqa aloqalarini bag'ishlangan. Muallif kitobning kirish qismida Amir Xusravning nazariy faoliyatiga qisqacha to'xtalib o'tadi. Unda muallif tarixiy

²Amir Xusravi Dextlavi. E'jozi Xusravi. – Dushanbe, 2013.

³ *یاء دجاو* ۹۶۹۱ “کرامتاً تو صد”

⁴Дарвеш Али Чанги. Трактат о музыке. Пер. Семенова. – Т., 1946.

⁵Mohammad Wahid Mirza. The Life and Works of Amir Khusrau. – The Baptist Mission Press, Calcutta, 1929.

⁶Fatimi Q. Amir Chusro's contribution to indo-muslim tradition. – Islamabad, 1975.

⁷Nizomiddinov Sh.M. Amir Xusrav Dehlaviy. – Т., 1969.

⁸To'ychieva.G. Xusrav Dehlaviy ma'naviyati. Sarchashma jurnal – 1998/3.

⁹Mirsaidov J. Amir Xusrav Dehlaviyning ahloq haqidagi qarashlari. – Т., 1982.

¹⁰Shamuxamedov S.A. V poiskax ideala. – Т.: Fan, 1982.

¹¹Alieva.G.Yu. Amir Xusrav Dextlaviy. Matla' al anvor. Kirish so'zi. – М., 1915.

¹²Синха Н.К., Банерджи А.Ч. История Индии. – М.,1954.

¹³Ашрафян К.З. Делийский султанат. – М., 1960.

¹⁴Lal K.S. History of the Khaljis. – Allahabad, 1950.

¹⁵Ranade G.B. Maharashtra-jivan. – Puna, 1960.

¹⁶Mallaev N. O'zbek adabiyoti tarixi. Birinchi kitob. – Т., 1965.

¹⁷Ram Baby Saksena. A history of urdu literature. – Allahabad, 1927.

¹⁸Chauxan Sh. Oчерк istorii literatury хинди. – М., 1960.

¹⁹A'zamova M.R. Boburiylar davri musiqa madaniyati. – Т., 2007.

²⁰Madhumita Dutta. Let's Know Music and Musical Instruments of India. – New Deli, 2008.

²¹Dr. Suneera Kasliwal. Classical musical instruments. –New Delhi, 2001.

Чаухан Ш. Очерк истории литературы хинди. – М., 1960.

²³Sunil Bose. Indian classsal music. – New Deli, 1995.

²⁴Азизова Ф. Шашмаком и рага. – Dushanbe, 1999.

manbalarda zikr etilgan fikrlar xususida ma'lumot berish bilan chegaralangan. Xusrav Dehlaviyning musiqiy merosi alohida bir tadqiqot tarzida o'rganilmagan.

Askarali Rajabov va Asliddin Nizomov²⁵lar tomonidan taqdim etilgan manbalarning bir bo'limi Xusrav Dehlaviyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida ma'lumotlar keltiriladi.

D.Karamatovanning "The 12-maqam System and its Similarity with Indian Ragas"²⁶ maqolalari o'n ikki maqom va ragalarni qiyosiy o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, Xusrav Dehlaviyning bastakorlik faoliyati xususida ham fikrlar keltiriladi.

Shu bilan birga Mixobiddin Narziqulning "Трактат Амира Хусрава Дихлави «Эъджази Хусрави» («Чудо Хусрава») и традиции эпистолярного жанра в истории персидско-таджикской литературы (X-XIV вв.)"²⁷ falsafa doktorlik ilmiy darajasi uchun yozilgan dissertatsiyasida risola hamda epistolyar san'ati haqida batafsil to'xtalib, ilmiy tahlil qilinadi. Biroq dissertatsiyaga filologik tomonlama yondoshilgani uchun musiqa ilmi haqida so'z yuritilmaydi.

Dissertatsiyada chet ellarda va O'zbekistonda nashr etilgan adabiyotlar va musiqiy risolalardan kengroq foydalanishga harakat qilindi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat konservatoriyasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Milliy va jahon musiqa san'atida professional kadrlar tayyorlashning ilmiy-ijodiy printsiplari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Amir Xusrav Dehlaviyning musiqiy merosini, musiqa san'ati rivojiga qo'shgan nazariy va amaliy ishlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Amir Xusrav Dehlaviyning ijodiy faoliyatidagi musiqiy janrlar shakllanishi va takomillashishidagi hissasini tarixiy omillarini aniqlash;

"qavvali, "xayal", "tarana" janrlarini tarixiy, nazariy va shakl jihatdan ustuvor ahamiyatini ochib berish;

Amir Xusrav Dehlaviy ijodiga mansub bo'lgan birlamchi manba va omillarni aniqlash;

Dehlaviy ijodida "E'jozi Xusrav" risolasidagi musiqiy-nazariy, "qavvali", "xayal", "tarana" janrlarining (parda-ohang, usul, shakl, rivoj tamoyillari;) ilmiy-nazariy, amaliy masalalari muhim o'rin tutganligini asoslab berish.

Tadqiqotning obykti sifatida XIII-XIV asarlarda ijod etgan Amir Xusrav Dehlaviyning ilmiy va amaliy merosi tanlangan.

Tadqiqotning predmeti Amir Xusrav Dehlaviy ilmiy-amaliy merosi va ular negizida shakllangan musiqiy ijodiyoti, "Risola-ul-E'joz" ("E'jozi Xusrav") risolasi hamda uning organologik, janrlarda hind va o'n ikki maqom negiza yaratilgan bastakorlik asarlarda aks etish jarayonlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusini yoritishda tasniflash, qiyosiy-tarixiy metod kabi tadqiqot va tahlil usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

²⁵Asliddin Nizomi. Таърихи муסיкии тоҷик. – Dushanbe, 2014.

²⁶Dilorom Karomat The 12-maqam System and its Similarity with Indian Ragas (according to Indian Manuscripts)

²⁷Нарзикул М. Трактат Амир Хусрава Дихлави Эъджази Хусрави (Чудо Хусрава) и традиции эпистолярного жанра в истории персидско-таджикской литературы (X-XIV вв). – Dushanbe, 2009.

hind musiqa ijrochilik amaliyotida qo‘llanilib kelinayotgan *pushtu taal*, *zumra taal*, *chautal taal* usullari Dehlaviy tomonidan tabla cholg‘usi uchun yaratilganligi “E’jozi Xusrav” risolasidagi ma’lumotlar asoslangan;

risoladagi *qavvali*, *xayal*, *tarana* kabi musiqiy shakllar, bastakorlar ijodiyoti va ular bilan bog‘liq hind mumtoz asarlarning muhim shakli sifatida ijro etilishi, setor cholg‘usiga tor qo‘shilishi bilan qayta shakllanganligi, tabla cholg‘usi esa yangi soz sifatida yaratilganligi, “E’jozi Xusrav” risolasida musiqa nazariyasiga doir ma’lumotlar mavjudligi bilan isbotlangan;

Amir Xusrav Dehlaviy tomonidan takomillashtirilgan (setor) va yaratilgan (tabla) cholg‘ular hamda *qavvali*, *xayal*, *tarana* janrlari hind mumtoz musiqasining yetakchisi bo‘lgan ragalar asosida yaratilganligi dalillangan;

musiqiy namunalarning tuzilish tartibi va ijro uslubi bilan ajralib turuvchi *qavvali*, *xayal*, *tarana* janrlaridagi “sulfakta”, “zumra taal” kabi usullar Amir Xusrav Dehlaviy tomonidan yaratilganligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Amir Xusrav Dehlaviyning ijodiga mansub bo‘lgan cholg‘ular, janrlar va risolasi birlamchi manbalardan olingan xulosalar musiqashunoslik uchun muhim nazariy-amaliy ma’lumotlar aniqlangan;

Dehlaviy ijodiyotida eng ko‘p uchraydigan shakl va janrlarning o‘ziga xos jihatlari ushbu san’at negizlarini tushunishda asos bo‘lib xizmat qilishi dalillangan;

Xusrav Dehlaviyning musiqa merosi, bastakorlik ijodiyoti negizida shakllangan janrlarni keyingi avlod vakillari orasida keng targ‘ib etishda nazariy masalalari asoslangan;

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim muassasalarida, sharq musiqa san’atini o‘rganishda qo‘shimcha adabiyot bo‘lishi, “O‘zbek musiqasi tarixi”, “Sharq xalqlari musiqa tarixi” kabi fanlarga oid darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratilishida tarixiy, ilmiy, nazariy ma’lumotlar sifatida xizmat qilishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi Tahlil etilgan birlamchi risolalardan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asosligi, olingan natijalarning amaliyotda, ta’lim jarayonida foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, nazariy xulosalar bugungi davr musiqashunosligida mavjud ma’lumotlarni kengaytiradi va to‘ldiradi, musiqiy manbashunoslik, san’atshunoslik sohalarida ham birlamchi manbalarda mavjud musiqiy atamalar mohiyatini teran anglash va yangicha, o‘ziga xos uslubda tadqiq etish imkoniyatini beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, dissertatsiyadagi ilmiy ma’lumotlarni oliy ta’lim muassasalarida “O‘zbek musiqasi tarixi”, “Sharq xalqlari musiqa tarixi” fanida dasturulamal sifatida, qolaversa sozgarlik san’atida musiqiy cholg‘ular haqidagi ma’lumotlarni amaliyotda joriy etish jarayonlarida foydalidir.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Amir Xusrav Dehlaviy va musiqa” tadqiqoti bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

hind musiqa ijrochilik amaliyotida qo‘llanilib kelinayotgan *pushtu taal*, *zumra taal*, *chautal taal* usullari Dehlaviy tomonidan tabla cholg‘usi uchun yaratilganligi “E’jozi Xusrav” risolasidagi ma’lumotlar “O‘zbek milliy maqom san’ati markazi” tomonidan 2018 yil 6-10 sentyabr kunlari Shaxrisabz shahrida bo‘lib o‘tgan “Maqom musiqa san’ati va uning jahon tsivilizatsiyasida tutgan o‘rni” mavzusida

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya dasturida foydalanilgan (“O‘zbek milliy maqom san’ati markazi”ning 2022 yil 3 iyundagi 100-son ma’lumotnomasi). Natijada konferensiya ishtirokchilarining Amir Xusrav Dehlavviy ilmiy va amaliy merosi haqida yangi ilmiy ma’lumotlarga ega bo‘lishlariga erishilgan;

risoladagi *qavvali, xayal, tarana* kabi musiqiy shakllar, bastakorlar ijodiyoti va ular bilan bog‘liq hind mumtoz asarlarning muhim shakli sifatida ijro etilishi, setor cholg‘usiga tor qo‘shilishi bilan qayta shakllanganligi, tabla cholg‘usi esa yangi soz sifatida yaratilganligi haqida olingan natijalar “Mahalla” radiokanali orqali efirga uzatilgan “Adabiyot gulshani” turkum eshittirishi senariysida foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Mahalla” teleradiokanali davlat muassasasiining 2022 yil 13 iyun 765-son ma’lumotnomasi). Pirovardida radio tinglovchilar shu asosda Amir Xusrav Dehlavviy ijodi haqidagi ma’lumotlar yuzasidan muayyan tasavvurga ega bo‘lganlar;

Amir Xusrav Dehlavviy tomonidan takomillashtirilgan (setor) va yaratilgan (tabla) cholg‘ular hamda *qavvali, xayal, tarana* janrlari hind mumtoz musiqasining yetakchisi bo‘lgan ragalar asosida yaratilganligi O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasida faoliyat yuritayotgan bastakorlar va musiqashunoslar sho‘ba majlislarida milliy maqomshunoslikning janr va ashulalari, mahalliy uslublar shakllanishiga asoslangan holda foydalanilgan (O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasining 2022 yil 14 iyun 01-04/63-120-son ma’lumotnomasi). Pirovardida yosh bastakorlar va musiqashunoslar Amir Xusrav Dehlavviy va uning ijodi, adabiyot, musiqa sohalarida amalga oshirgan ishlari xususida qiziqarli ma’lumotlarga va muayyan tasavvurlarga ega bo‘ldilar;

musiqiy namunalarning tuzilish tartibi va ijro uslubi bilan ajralib turuvchi *qavvali, xayal, tarana* janrlaridagi “sulfakta”, “zumra taal” kabi usullar Amir Xusrav Dehlavviy tomonidan yaratilganligi haqida olingan natijalar “Mahalla” radiokanali orqali efirga uzatilgan “Adabiyot gulshani” turkum eshittirishi senariysida foydalanilgan. (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Mahalla” teleradiokanali davlat muassasasiining 2022 yil 13 iyun 765-son ma’lumotnomasi). Pirovardida radio tinglovchilar shu asosda Amir Xusrav Dehlavviy ijodi haqidagi ma’lumotlar yuzasidan muayyan tasavvurga ega bo‘lganlar.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 17 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, 3 ta xalqaro va 10 ta ilmiy tezislar respublika va xalqaro anjuman to‘plamlarida nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, ilovalardan tarkib topgan bo‘lib, asosiy matn 127 betdan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot masalalari shakllantirilib, tanlangan mavzu va uning hozirgi zamon san’atshunoslik ilm-fani taraqqiyotida dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan,

respublika fan texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning “**Amir Xusrav Dehlaviy badiiy merosining ahamiyati**” deb nomlangan birinchi bobida XIII-XIV asrlar ijtimoiy-madaniy muhiti, ijodkorning adabiy merosi hamda “Xamsa” turkumining o‘rni haqida fikrlar yuritiladi. Uning ijodiy faoliyati davomida erishgan yutuqlari va amallari yoritib beriladi.

Har bir davrning ijtimoiy-siyosiy tuzumi bevosita madaniy hayotga, o‘sha davr rivojiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. XIII-XIV asr madaniyat sohalaridagi rivoji ham bevosita davrning siyosiy mafkurasidan bebaxra qolmagan. Bu davrda Markaziy Osiyo allomalari tarqoq holda turli mamalakatlarda yashab ijod etishgani va o‘z sohalarida ko‘plab yangiliklarni paydo bo‘lishiga sababchi bo‘lganini guvohi bo‘lamiz. Pirovardida, har bir davrning o‘z mutafakkirlari, yorqin namoyandalari dunyoga kelishiga sabab bo‘lgan tarixiy jarayon, u yoki bu darajada o‘z vazifasini bajarishga xizmat qilgan. Amir Xusrav Dehlaviy ham Hindistonda tug‘ilishiga, yashab-ijod etishiga, keyinchalik hayoti davomida adabiyot va san‘at sohalarida yangiliklar kiritishiga ijtimoiy-siyosiy tizim ham ozmi-ko‘pmi o‘z ta‘sirini ko‘rsatganligini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Dehlaviy she‘riyat dunyosida mislsiz ekanligini filolog olimlar qayta-qayta ta‘kidlaydilar. Uning she‘riyat olmda ham yangiliklar yaratgani sir emas. ““Nux sipehr” asarining uchinchi qismi *mufta’ilun, mufta’ilun, mufta’ilun* vazinda yozilgan”²⁸. Vahid Mirza “Shu davrgacha masnaviyalar bunday vaznda yozilmagan”ligini ta‘kidlaydi – “Bu yangi vazinni men o‘zim kashf qildim va iqtidorim bilan uni qimmatbaho toshlar bilan to‘ldirdim”²⁹.

“Muftailun” – mustafilun rukni tarmoqlari tarkibiga kirib, mustafilunning “tayy” (yig‘ilish) zihofiga duch kelib, oxirgi bo‘g‘inlarining qisqa bo‘g‘inlarga aylantirilishidan hosil bo‘ladi va matviy deb yuritiladi³⁰. Dehlaviy tomonidan yaratilgan “*muf-ta-i-lun- muf-ta-i-lun- muf-ta-i-lun*” (- V V - - V V - - V V -) vazni haqida Alisher Navoiyning “Mezon ul-avzon” asarida “Rajazi musammani matviyi mahbun”³¹ deb yuritiladi. Ya‘ni, Rajaz bahriga tegishli murakkab vaznlardan biridir. Lekin, shoirning o‘zi bu vaznga kam murojaat etganligi uning murakkabligidan dalolatdir. Shunga qaramasdan amaliyotda qo‘llanilib, shoirlar ijodida o‘z o‘riniga ega bo‘lishga muyassar bo‘ldi. Mana shu vaznga misol tariqasida Navoiy quyidagi baytlarni keltiradi:

“Kel ey rashki qamar, la‘li labing tungi shakardandur,
Furqating o‘tida ko‘ngul chekti sipehr uzra shakardur.

Muftailun muftailun muftailun muftailun”³²

Qayd etilganidek, Dehlaviy ijodi ham ma‘lum darajada tasavvuf g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘lgan. Shoirning ruhiy madadkori va piri bo‘lgan Shayh Nizomiddin

²⁸Тўйчиева Г.У. Аруз в контексте газелей Амира Хусрова Дехлавий. – Т., 2005 г., стр-86

²⁹Mohamad Wahid Mirza. The life and works of Amir Khusrau. – Delhi, Reprint, 1974. r-183.

³⁰Xojiaxmedov A. Aruz nazariyasi asoslari. – Т., 2018 y., 56-b

³¹Navoiy A. Mezon ul-avzon. – Т., 1983y., 20-b

³²Navoiy A. Mezon ul-avzon. – Т., 1983y., 20-b

Avliyo uni “Turkulloh”, ya’ni “Alloh yaratgan turk” nomi bilan ataydi.³³ Ijodiyotining samarasi natijalari ham bunga guvoh desak ayni haqiqatdir.

Shoirlik maqomiga erishish uchun ijod yo‘lidagi pillapoyalaridan birma-bir chiqar ekan, asta-sekin kamolot cho‘qqisini zabd etadi. Amir Xusrav Dehlaviy ham o‘zining ijodi davomida yozilgan asarlari biri-biridan qadr-qimmatini oshib boraveradi. Chunki, uning bir asardan ikkinchi asargacha tafakkuri, dunyo qarashi va tajribasi yuksaklanishini guvohi bo‘lishimiz mumkin. G‘azalnavislik hamda aruz vazni ta’limotida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ijodkordir. Dehlaviy ijod qilgan yangi vazni esa uni aruz ilmida ham shoirlik olamida yetuklikka erishganligidan dalolat beradi. Uning ijodi hattoki Mirzo Boysunqara va Mirzo Ulug‘beklardek buyuk saltanat xukmdorlarining bahslariga sababchi bo‘lgan shaxsdir. U zamonasining ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayoti xaqida so‘zlovchi tarixiy dostonlarini kelajak avlod uchun bebaho boylik sifatida meros qilib ketdi.

Amir Xusrav Dehlaviyning “Xamsa” turkumida musiqiy iboralar, cholg‘ular haqida ham baytlar mavjud. Ularni “Oinai Iskandariy” va “Hasht behesht” dostonlari misolida ko‘rib chiqamiz. Mazkur dostonlarda Dehlaviy ijrochilarga nisbatan: *mutrib, mug‘aniy, barbatnavoz, kextarnavoz, navozishkunon, sozandagi, nag‘masaroyi*;

Cholg‘ulardan: *barbat, arg‘unun, rud, tanbur, chang, karnoi, nay, rubob*;
pardalardan: *Sarparda, Zuhra, Ushshoq, Hijoz, Buzurgon* iboralarini qo‘llaydi. E’tiborli jihati shundaki, “Oinai Iskandariy” dostonining deyarli barcha bo‘limlarining oxirgi baytlari “Biyo mutrib” so‘zlari bilan boshlanadi va butun asar davomida 14 marta keladi. Masalan:

*Биё, мутрибо, баркаш овози тар,
Димоғи маро тар кун аз сози тар.
Равони кун, ки хушк аст рӯди рубоб,
Аз он дасти чун абри борон-и об³⁴.*

Dehlaviy “navo” so‘zini turli tuslanishlarda mahorat bilan qo‘llaydi. Jumladan, *navozish, xushnavo, navozishkunon, navozandaroma’zart, navozanda*;

“Barbat” so‘zi cholg‘u sifatida *barbati, barbatzani, barbatnavoz* kabi so‘zlarni mahorat bilan ishlatadi;

Arg‘unun so‘zi ilk bor “Oinai Iskandariy” dostonida uchraydi. “E’jozi Xusrav” risolasida bu cholg‘u haqida so‘z yuritilmagan, demak Dehlaviy “Oinai Iskandariy” dostonining mazmunidan kelib chiqqan holda shu cholg‘u haqida so‘z yuritgan bo‘lishi ehtimoldan xoli emas.

*Ба ҳар шох муруғ аргунун сохта,
Ба ҳар нағма гулбун сар андохта.
Аз он нағма, к-ӯ гораги ҳуш кард,
Муганнӣ тараннум фаромӯш кард³⁵;*

Chang, rubob, rud cholg‘ularini asar davomida bir necha marta uchratishimiz mumkin. Ayniqsa “chang” cholg‘usi haqida Dehlaviy beshinchi dostoni “Hasht behesht”da alohida to‘xtaladi. Bu cholg‘uni Dilorom obrazi bilan qiyoslab, har

³³To‘ychieva G. Xusrav Dehlaviy ma’naviyati. – Sarchashma jurnal 1998/3, 38-b.

³⁴Amir Xusrav Dehlaviy. Osori muntaxab. – Dushanbe, 1972 y., 65-b

³⁵Shu manba. 105-b

ikkalisi naqadar go‘zalligi, Dilorom bu cholg‘uni chalganida undan taralgan sado Bahromni hushini olgani ta’riflangan.

*Бодаи лаъли арғувониранг
Чивагар гаит дар тараннуми чанг.
Бар хӯрӣ з-он санам, ки дар ҳама соз,
Ту ғарибиву ӯ ғарибнавоз.
Ҳар тараф лӯбате бирешимсоз
Гаит з-оҳанги хуш ғарифнавоз³⁶*

Rubobdan taralgan sadoni Dehlaviy arg‘anun cholg‘usi singari xushovozligi va uni tinglaganlarni joniga malhamdek ta’sir etishi haqida cholg‘uga ta’rif beradi:

*Фурӯтан шуда чанги нағмасарой,
Сарафгандаву истода ба пой,
Хушовозии арғунуну рубоб,
Ба мастон ҳамедод доруи хоб³⁷.*

Shu bilan bir qatorda dostonlarda nafaqat cholg‘ular, balki pardalar haqida ham so‘z yurtitiladi. Zuhra pardasini ikki xil ma’noda qo‘llaydi: biri yulduz sifatida; ikkinchisi esa musiqadagi parda. Zuhra pardasi eng yuqori parda ekanligiga ishora qiladi.

*Ба барбатзанӣ Зӯҳраи пардасоз
Шуд аз пардаи ноз барбатнавоз³⁸.*

Dehlaviy “Hasht behesht” dostonining Dilorom va Bahromga ta’rif berish bo‘limida o‘n ikki parda haqida shunday deydi:

*Як ба як зери дасти худ карда,
Чор созу дувоздаҳ парда.
Барбатаг чун наво баровардӣ,
Ҷон зи тан бурдиву дароварди³⁹.*

Cholg‘ularga ta’rif berar ekan, ularni har biriga shoirona mahoratini yuqori daraja ekanligini guvohi bo‘lamiz. Lekin, Dehlaviy cholg‘ularni tuzilishi yoki ko‘rinishi haqida batafsil to‘xtalib o‘tmagan, faqatgina ularning sadolari naqadar go‘zal tarannumga egaligi, ularning sirli ohanglarni tinglovchiga yetkazishi, yoqimli va tarovatli sadolar orqali tinglovchini o‘ziga maftun etishi, oxir oqibat ko‘ngil istagiga yetkazishga qodirligini ko‘rsatib beradi. Yana shuni ta’kidlash joizki, Dehlaviy xonanda va sozandalarni juda hurmat qilgani, ularning iste’dodini yuqori darajaga ko‘targanini har ikkala dostonida kuzatishimiz mumkin.

Amir Xusrav Dehlaviy ijodi Xamsachilik, tarixiy dostonchilik va g‘azalnavislikda, O‘rta va Yaqin Sharq xalqlari adabiyoti taraqqiyoti jarayonida muhim bosqichilardan biri bo‘ldi. Amir Xusrav Dehlaviy ijodining abadiyligi, uning ulug‘ Navoiy tomonidan “Hind sehrgari” deb nomlanishi fors-tojik adabiyoti tarixida o‘chmas iz qoldirdi.

Amir Xusrav Dehlaviy asarlari o‘sha davrning oinasi sifatida namoyon bo‘ldi. Uning asarlari davrning ijtimoiy va madaniy hayotini in’ikosidir. Xusrav Dehlaviy

³⁶Shu manba. 360-b

³⁷Shu manba. 108-b

³⁸Shu manba. 114-b

³⁹Shu manba. 265-b

tarixchi bo‘lmasada, lekin uning asarlari tarix uchun katta manba sifatida xizmat qildi.

XIII asrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar ta’siri madaniy hayotga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Chinogizxon Markaziy Osiyoni bosib olishi, aholining turli darajadagi, turli soha vakillari boshqa yurtlarga qochib ketishi albatta keyingi davr rivojlanish bosqichiga sabab bo‘ldi. Hamda musiqa, adabiyot, rassomchilik, hattoki tillarda assimilyatsiya jarayonlari yuz berdi. Amir Xusrav Dehlaviy ijodida ham shu holatni adabiyotda va musiqada kuzatishimiz mumkin. Fors va hind tillarida rexta, ya’ni shiru-shakar usulbida bir biridan go‘zal, purma’no g‘azallar, masnaviyalar ijod qilganligi e’tiborga molikdir.

Nazira an’anasini boshlab bergan, xamsanavis adib sifatida jahon adabiyotshunosligida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ummondek ijodining tomchisi “Xamsa” turkumi – qanchadan-qancha olimlarning izlanishlariga sababchi bo‘ldi. Bu turkum ham tarixiy, badiiy, musiqiy obrazlarni o‘z ichiga qamrab olgan asardir. Uning obrazlari badiiy tomondan mohirona yondoshib, muallif o‘zining iqtidori va iste’doni yuqori cho‘qqilarida ko‘rsatib bergan.

Dissertatsiyaning “**Amir Xusrav Dehlaviyning musiqiy merosi**” nomli ikkinchi bobida Dehlaviyni ijodkor, ijrochi, musiqiy ilm namoyandasi sifatida amalga oshirgan ishlari haqida ma’lumot beriladi. Shu bilan birga “E’jozi Xusrav” risolasining musiqa haqidagi bo‘limi batafsil yoritib berilgan.

Amir Xusrav Dehlaviyning musiqa san’ati rivojiga qo‘shgan hissasi buyukdir. Manbalarda zikr etilishicha, u nihoyatda musiqani xush ko‘rgan va tafakkur doirasida idroklagan musiqa bilimdonlaridan biri bo‘lgan. Bu xususiyatlari musiqa san’atining sozandalik, bastakorlik, cholg‘u va ilmiy tadqiqotchilik yo‘nalishlarida o‘z aksini topgan. O‘tmish musiqiy an’analarini o‘zlashtirib, musiqiy risolalarni mutolaa qilib, nomdor sozandalarni faoliyati bilan tanishib, o‘zi ham musiqani qanday yaratish hissini, ya’ni sozandalik sohasini ixtiyor qiladi. Bu esa uning qalbida musiqaga uyg‘ongan ishq edi.

Uning adabiy merosini o‘rganish jarayonida, xalq musiqa an’analarining xususiyatlari va musiqa ilmining nazariy asoslari haqida asosli bilimga ega bo‘lganligiga guvoh bo‘lish mumkin. Zero uning asarlarida musiqa san’atiga xos iboralar, janrlar, cholg‘ular ma’nolar kesimida, juda oqilona hamda o‘rnida qo‘llanilgan. Amir Xusrav Dehlaviy o‘z davrining mohir sozandasi, bastakori hamda musiqaga oid bir qator risolalar yaratganligi tarixiy manbalarda zikr etib o‘tilgan. Jumladan, سيفخان فكرالله "راگا درپن" (Sayfxon Fakirulloning “Rag darpan” (“Raga oynasi”)), مرزا محمد ابن فخرالدين "قوايد موسيقي" (Mirza Muhammad ibn Faxriddin Muhammadning “Qavoidi musiqiy” (“Musiqqa qonunlari”), محمد علي "رساله في نغمه" محمد نرساد چشطي, (Muhammad Alining “Musiqqa haqida risola”si), "الموسيقي معروف" طخكر نوب علي خان, Muhamad Nursad Chishtiyning “Nag‘mai Ushshoq, النغمات" (Txakur Navvab Ali Xonning “Ma’ruf-ul- nag‘mat” (“Ajam va hind musiqasi”), A. Rajabovning “Madaniyati musikiy tochik dar asrxoi XIII-XIV”⁴⁰, K.Fotimining “Amir Chusro’s contribution to indo-muslim tradition”⁴¹ (“Amir Xusravning hind-musulmon an’analariga qo‘shgan hissasi”) va h.k.

⁴⁰Rajabov A. Madaniyati musikiy tochik dar asrxoi XIII-XIV. Dushanbe, 1987 y.

⁴¹Fatimi Q, Amir Chusro’s contribution to indo-muslim tradition. Islamabad, 1975 y.

Darxaqiqat, Amir Xusrav Dehlaviy ilmiy merosining ko‘lami keng, musiqa san‘ati ijodiyoti, amaliyoti va cholg‘ular dunyosi an‘ana-zamon, amaliyot va ijro kesimlarida va bir-biriga uyg‘un holda rivoj topgan.

Amir Xusrav Dehlaviy va uning merosiga har bir muallifning yondrshish mezonini o‘ziga xos. Ularda Dehlaviyning musiqa san‘atini amaliyoti va ijodiyotiga qo‘shgan hissasi, ijrochiligi hamda organologiya faniga qo‘shgan hissalarini tilga olib o‘tilgan. Manbalar ma‘lumotlarining muxtasar bayonlariga asosan Amir Xusrav Dehlaviy musiqa san‘atining to‘rt yo‘nalishi bo‘yicha samarali faoliyat olib borganligini e‘tirof etish lozimdir.

1. Ijodkor – bastakorlik ijodi, ya‘ni hind mumtoz musiqa an‘anasi asosida yaratgan yangi asarlari;

2. Ijrochi – cholg‘ushunoslik va cholg‘ularni takomillashtirish sohasida hind mumtoz musiqa ijrochiligi amaliyotida moslashtirgan amallari;

3. Musiqiy ilm-musiqiy ijrolarni ma‘nolar tizimida bayon etib, musiqashunos sifatida namoyon bo‘lishi;

4. Ustoz-shogird – ta‘lim jarayoni.

Xusrav Dehlaviy musiqani shu darajada yuksaklashtirganki, doimo uni ilm darajasidagi san‘at sifatida e‘tirof etib boradi.

Xusrav Dehlaviyning musiqa olamida shaxs sifatida tasavvurga ega bo‘lishimizda uning “E‘jozi Xusrav” risolasidagi fikrlari juda katta omil bo‘lib xizmat qiladi. Butun risola davomida uni o‘z zamonasining nafaqat she‘riyat olamida, insho san‘atida, balki musiqa ilmida ham daho bo‘lganligini isbotini topadi. U o‘zi erishgan yutuqlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Xonanda sifatida u juda go‘zal ovozga ega bo‘lgan “Zuhra bizning yuqori ovoz pardalarni olishimizga havas bilan qaraydi”⁴². Bu misralar Xusrav Dehlaviy xonandalik sirlaridan ham xabardor bo‘lganligiga ishora sifatida xizmat qiladi;

2. Sozandalik olamida ham mohirlikka erisha olgan. Turli kuylarni uyg‘unlashtirib, bir laddan boshqa ladga o‘tishda juda mohir bo‘lgan;

3. Tovushlar tabiatini, ko‘plab cholg‘ular tuzilishini bilgan va sozlarni takomillashtirgan hamda yaratgan;

4. U sadoqatli shogird va bilimdon hamda mehribon ustoz;

5. U bastakor – asosiy va yordamchi ladlar yaratgan, ya‘ni maqom namunalari;

6. U tanqidchi.

Amir Xusrav Dehlaviyning musiqa olamidagi hissasini faqatgina uning barcha asarlarini o‘rganib, tahlil qilib, keyingina baho berish mumkin. Uning birgina “E‘jozi Xusrav” risolasi orqali Xusrav Dehlaviyning dunyo musiqa olamida buyuk olim, hind musiqa tarixida takrorlanmas daho siymosini ko‘rishimiz mumkin.

U buyuk ijrochi, musiqashunos sifatida musiqani-ilmiy jihatdan tadqiq etgan olimdir. Uning musiqaga bo‘lgan muhabbati quyidagi misralarda o‘z ifodasini topgan: “Hatto menning vafotimdan so‘ng, agar kimdir qabrimga kelib quloq solsa, u yerdan she‘rlarimni xonishi emas, balki mukammal kuylarni shirin ohanglarini eshitadi”⁴³.

⁴²Shu manba, 176-b

⁴³Amir Xusravi Dextravi. E‘jozi Xusravi. – Dushanbe, 2013 y., 180-b.

Ko‘p qirrali olim Amir Xusrav Dehlaviy nafaqat shoir, bastakor balki, musiqiy cholg‘ularni takomillashtirishda hamda usta ijodkor sifatida e‘tirof etiladi. Avvalo, cholg‘u yaratish yoki unga qandaydir o‘zgartirish kiritish uchun o‘sha cholg‘uni yaxshi bilishiyu, unda ijro eta olishi talab etiladi. Ayrim manbalarda “Xusrav Dehlaviy setor va tabla cholg‘ularini yaratgan” deyilsa, ayrimlarida esa “takomillashtirgan” degan fikrlarni uchratish mumkin. Ma’lumki, yangi cholg‘uni amaliyotga kiritish yoki unga qandaydir o‘zgartirish kiritish, takomillashtirish uchun va bu o‘zgartirish asrlar davomida saqlanib qolishi, ijrochilar tomonidan amaliyotda qo‘llanilishi, ijrochilar uchun ma’qul, qulay, ijro imkoniyatlari keng bo‘lgandagina sozandalar tomonidan tan olinadi hamda amaliyotda qo‘llaniladi.

Pirovardida Xusrav Dehlaviy setor cholg‘usini tom ma’noda yaratgan, deyilsa mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, u cholg‘uga bitta tor qo‘shib, ijro va ovoz imkoniyatlarini kengaytiribgina qolmay, ijrochi uchun qulay sharoitni yaratib berdi. Bu esa uni mohir sozgar va cholg‘uchi ekanligidan dalolat beradi.

Amir Xusrav Dehlaviyning cholg‘ular yaratilishi bilan bog‘liq ijodi xususida yana bir cholg‘u alohida qayd etilgan. Xususan, hind mumtoz musiqasi ijrochiligida yetakchi hisoblangan tabla cholg‘usini yaratilishi, o‘tmish manbalarida Amir Xusrav Dehlaviy nomi bilan bog‘liqligi e‘tirof etib o‘tiladi. Tablaning kashf etilishi ham hind cholg‘ularidan biri asosida amalga oshirilganligi xususida Sunil Bas o‘zining “Indian classic music” kitobida bayon etib o‘tadi. Xususan “Urma cholg‘uni kiritilganligi ham Xusrav tomonidan juda qiziqarli bo‘lgan... ya’ni “...pakxavajni⁴⁴ ikki qismga bo‘layotib tablaning birinchi namunasi kashf qilgan”.⁴⁵ Pakxavaj cholg‘usi Shimoliy hind klassik musiqasidagi asosiy urma cholg‘u hisoblaniladi. Mazkur urma cholg‘u haqida tarixiy manbalar XII asrdan oldin paydo bo‘lganligiga ishora qiladi. Bu cholg‘u ilgari “Mridang” deb atalgan. XIII asrga kelib esa “Maddalam” deb atala boshlaydi. XV asrda “Pakxavaj” nomi berilgan. Lekin shunga qaramay “Mridang” so‘zi yo‘qolib ketmagan va uning sinonimi sifatida qo‘llanilib kelinmoqda. Pakxavaj cholg‘usi hind mumtoz musiqasida eng muhim o‘rin egallagan cholg‘u hisoblanilgan. Chunki, u dxrupad uslubiga, rabab, surangar, surbaxar cholg‘ulariga yagona urma jo‘rnavor cholg‘u hisoblanilgan. Lekin, musiqa amaliyotiga xayal janri va tabla cholg‘usini kirib kelishi pakxavaj cholg‘usining mavqeyini tushiradi. Pakxavajning ijro jarayoni ochiq qo‘l bilan zarb berishi, xayal, txumri setor kabi nozik va his-hayajonga boy janrlar va cholg‘ular jarangini berkitgan. Tabla cholg‘usi esa barmoqlar bilan zarb berib ijro etishi, mazkur musiqiy janrlarning xarakterini yanada ko‘proq ochib berish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Shu bilan birga tabla barmoqlar yordamida chalingani uchun pakxavajga nisbatan usullarni tezroq ijro etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Barmoqlar yordamida uriladigan zarblar joyiga va zarbning sifatiga qarab turli tovushlar paydo bo‘ladi.

Amir Xusrav Dehlaviy tomonidan takomillashtirilgan cholg‘ular nafaqat manbalarda, balki ijro amaliyotida ham o‘z o‘rniga ega bo‘lgan hamda ijrochilar tomonidan qo‘llanilib kelinmoqda. U o‘z ijodi bilan hind cholg‘u dunyosini yangi namunalar bilan boyitgan inson. Eng muhimi, uning yaratgan cholg‘ulari o‘zining mukammalligi, murakkabligi–yu ijodida qulayligi, sadoda go‘zal, milliylikda juda

⁴⁴Pakxavaj – ikkiyoqlama zarb bilan ijro etiladigan cholg‘u

⁴⁵Sunil Bose. Indian classic music. – Vikas Paperbacks, 1993 u. r-50.

mosligi bilan hozirgi davrgacha o'z mavqeyini, o'rnini saqlab kelmoqda. Chunki, setor va tabla hind musiqiy cholg'ularining sarasidir. Dunyoning har bir mamlakatlarida bu cholg'ularni bilmagan, lekin uning sadolarini yoqtiradigan muxlislar juda ko'p. Ijrosi esa umumbashariyat xalqlari uchun juda ibrat sifatida jozibalidir. Qo'lyozmalarni tayyorlash jarayoni xattot va musavvir mehnatining natijasidir. Ayrim qo'lyozmalarda xattotlar rasm va bezak uchun joy ajratib ketgandan so'ng musavvir o'z iste'dodini namoyon qilsa, ayrim qo'lyozmalarda esa har ikkala mutaxassisning hamkorlikdagi ijodini namoyon etadi. Bunda rasm o'rtasida yoki pastki yoki yuqori qismida baytlar kiritilganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Badiiy bezakli qo'lyozmalar bir biridan farq qilinishining asosiy jihati ham ular turli xattotlar va musavvirlarning ijodiy tafakkuri, iste'dodi, didi bilan bog'liqligidir. Xusrav Dehlaviyning dostonlariga ishlangan rasmlar Sharq miniatyura⁴⁶siga xos bo'lgan uslubda yaratilganligini guvohi bo'lishimiz mumkin. Dissertatsiya jarayonida ko'rib chiqilgan va asosan musiqaga oid rasmlar turli davrlarda, turli xattotlar va rassomlar tomonidan qo'lyozmalarga ishlangan miniatyuralardir.

